



O'ZBEKISTONDA SPORT INTERNET NASHRLARINING SHAKLLANISH
JARAYONI VA RAQAMLI JURNALISTIKA SHAROITIDA SPORT MAVZUSINI
YORITISH XUSUSIYATLARI

To`raqulov Sherzod Shokir o`g`li

O`zJOKU 2-bosqich magistranti

sherzodturakulov4096@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda sport internet nashrlarining shakllanish bosqichlari, ularning institutsional va texnologik rivojlanish omillari hamda raqamli jurnalistika sharoitida sport mavzusini yoritishning o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot konvergent jurnalistika nazariyasi, tarmoq jamiyati konsepsiyasi va multimediyaviy kommunikatsiya modeli asosida olib borilgan. Sport internet OAV faoliyatining tezkorlik, interaktivlik, multimediyaviylik va auditoriya bilan muloqot kabi xususiyatlari ilmiy asosda izohlanadi.

Keywords: sport journalism, online publications, digital media, convergence, immediacy, audience

Abstract. This article analyzes the stages of formation of sports online media in Uzbekistan, the institutional and technological factors influencing their development, and the specific features of covering sports issues in the context of digital journalism. The research is conducted within the framework of convergence journalism theory, the network society concept, and the multimedia communication model. The distinctive characteristics of sports online media activities — such as immediacy, interactivity, multimedia integration, and audience engagement — are examined and theoretically substantiated.

Kalit so'zlar: auditoriya, internet nashrlari, konvergensiya, raqamli media, sport jurnalistikasi, tezkorlik

Kirish. Internet nafaqat jurnalistika uchun, balki, jamiyatning barcha jabhalari uchun ham bitmas-tuganmas imkoniyatlar manbayiga aylanib ulgurdi. Barcha kasb egalari undan foydalanganda vaqtini tejaydi, byurokratiyaga chek qo'yadi. Jurnalistlar uchun eng katta axborot makoniga aylangan megapolis bo'ldi. Jahon jurnalistikasing eng yosh yo'nalishi bo'lgan Internet jurnalistikasi katta taassurotlar qoldirmoqda. Xususan, sport jurnalistikasi bosma va teleformatdan internet platformalariga faol ko'chdi. Sport mavzusi internet auditoriyasi orasida eng talab yuqori bo'lgan kontent turlaridan biriga aylandi. Shu jarayon sport internet nashrlarining shakllanishiga zamin yaratdi. Globallashuv va raqamli texnologiyalarning rivojlanishi O'zbekiston media tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. O'zbekistonda ham sportga ixtisoslashgan internet nashrlari shakllanib, ular sport axborot makonining muhim qismiga aylandi. Xususan, Champion.asia va Sports.uz kabi saytlar tezkor yangiliklar hamda eksklyuziv materiallar orqali sport muxlislarining doimiy axborot



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



manbaiga aylangan. Ushbu platformalar nafaqat milliy, balki xalqaro sport voqealarini ham keng yoritib, auditoriya qamrovini oshirmoqda.

Asosiy qism. Sport bugun yurtimiz ta'lim-tarbiya tizimining ajralmas qismiga aylangan. 2024-yil Parijda o'tkazilgan yozgi Olimpiya terma jamoamiz a'zolarining qo'lga kiritgan yutuqlari misol. Bu bizning milliy sport tizimi va raqamli media orqali yoritishning samaradorligini ham ko'rsatdi. Mustaqillikdan so'ng sport mavzusi asosan bosma nashrlar va televideniye orqali yoritildi. Internet jurnalistikasi endigina shakllanayotgan davr edi."Mamlakatimizda 1990-yillar boshidan internetning ayrim oddiy imkoniyatlaridan foydalanilgan. 1996-yildan esa butunjahon tarmog'iga chiqish imkoni tug'ilgan. UZ domenidagi ilk veb-sayt 1995-yili ochilgandi. 2007-yilga kelib, O'zbekiston milliy domenidagi saytlar soni 5000 taga yetgan. 2022-yil 10-sentabr holatiga ko'ra, UZ zonasidagi faol domenlar soni 107191 tani tashkil etmoqda. Bundan ko'rinadiki, bugungi kunda o'zbek milliy internet segmenti dunyo global tarmog'ida o'z o'rnini topib bormoqda. Bu jarayonlar shu qadar tez va keng ko'lamda amalga oshmoqdaki, voqealar rivojini kuzatishga, uni tahlilu tadqiq qilishga ham fursat yetmaydi."⁷² Internet infratuzilmasining rivojlanishi bilan sport kontenti onlayn maydonga ko'cha boshladi. Mobil internet va ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi sport nashrlarini multimediyaviy formatga o'tishga majbur etdi. "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni sohaga doir ishlarning rivojlanishini yanada tezlashtirdi. Jumladan, jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan aholi sonini 2026 yilda 33 foizga chiqarish, respublika yoshlari o'rtasida milliy sport turlarini ommalashtirish, O'zbekistonda sportning ommaviylikini oshirish maqsadida milliy sport turlari va xalq o'yinlarini rivojlantirish bu kabi harakatlarni internetdagi sport saytlari va ijtimoiy tarmoqlar orqali ommalashtirish vazifalari dolzarb ahamiyat kasb etadi"⁷³ Endilikda saytlar matn, foto, video va jonli translatsiyani birlashtirgan konvergent platforma sifatida faoliyat yuritmoqda. "Televideniya dan tashqaridagi sport" konsepsiyasi sport mediasini onlayn kontent iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qiladi. Raqamli muhitda nafaqat professional media tashkilotlari, balki klublar, sportchilar va muxlislar ham kontent ishlab chiqaruvchiga aylanishmoqda. Bu esa sport jurnalistikasining an'anaviy modelini o'zgartirib, auditoriya fragmentatsiyasi, reklama bozorining parchalanganligi va tijoriy noaniqliklar kabi yangi muammolarni yuzaga keltirmoqda. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar sport voqealarini tezkor tarqatish, fikr almashish va muxlislar ishtirokini kuchaytirish imkonini bermoqda.

⁷² Boborajabov E. O'zbekistonda sport saytlarining paydo bo'lishi va rivojlanish tendensiyalari: monografiya. – Toshkent: Grand Kondor Print, 2024.

⁷³ Boborajabov E. O'zbekiston media maydonida sport saytlarining rivojlanish tendensiyalari// Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollari: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Vol. 1. – № 01 (2023). – B. 358.



Natijada sport jurnalistikasi nafaqat axborot yetkazish, balki media, iqtisod va madaniyat kesishgan nuqtada faoliyat yuritayotgan murakkab kommunikativ tizimga aylanmoqda.”⁷⁴

Raqamli ishlab chiqarish va tarqatish davri kengayib borayotgan bir sharoitda, Hutchins va Rowe shuni ta’kidlaydiki, “ko‘plab sport media tadqiqotchilari sport va televideniye o‘rtasida “orzu qilingan ittifoq” (“dream marriage”) mavjudligini ta’kidlaganlar Ularning fikricha, televideniye shakli va narrativ xususiyatlari jismoniy sport musobaqalarining “tasavvuriy jozibasini kuchaytirishga” xizmat qiladi. Biroq internet rivojlanib borayotgan bu davrda, media sport sohasida yirik iqtisodiy va madaniy kuchni amalga oshirishda televideniye endi yagona muhim vosita emas”.⁷⁵ Mobil internet va ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi sport nashrlarini multimediyaviy formatga o‘tishga majbur etdi. Endilikda saytlar matn, foto, video va jonli translatsiyani birlashtirgan konvergent platforma sifatida faoliyat yuritmoqda. “Sport kontenti xilma-xilligi va har qanday joydan oson kirish imkoniyati tufayli onlayn platformalarda sezilarli darajada oshdi. Bundan tashqari, raqamlashtirish iste’molchi agentligini kuchaytirishi mumkin, chunki u shaxslarga dasturlashtirilgan efir shakllariga moslashish o‘rniga, o‘zlariga moslashtirilgan individual iste’mol modelini yaratish imkonini beradi”.⁷⁶ Raqamli jurnalistika sharoitida sport mavzusini yoritishning o‘ziga xos xususiyatlari:

Tezkorlik va real vaqt rejimi: sport natijalari tezkor axborotni talab qiladi. O‘yin jarayonida jonli matnli translatsiyalar, tezkor yangiliklar, transfer xabarlarini sport internet jurnalistikasining asosiy elementi hisoblanadi.

Interaktivlik va auditoriya ishtiroki: raqamli jurnalistika sport mavzusini yoritishda auditoriyani faol subyektaga aylantirdi. Foydalanuvchi izoh qoldiradi, ovoz beradi, materialni ulashadi. Bu esa sport jurnalistikasida muloqot va bahs muhitini shakllantiradi.

Emotsional-ekspressiv uslub: sport jurnalistikasi boshqa sohalardan farqli ravishda yuqori emotsionallik va drammatizmga ega. Raqamli muhitda sarlavhalar ko‘proq klikbeyt elementlariga ega bo‘lishi mumkin, bu esa axborot sifatiga ta’sir ko‘rsatadi.

Analitik va ekspertlik materiallari: so‘nggi yillarda oddiy xabarlar bilan bir qatorda taktik tahlil, statistik sharhlar va ekspert intervyularining ulushi ortmoqda. Bu sport internet nashrlarining professional darajasini ko‘rsatadi.

Raqamli amaliyotning yana bir muhim jihati – moslashuvchanlikdir. Media maydonidagi tezkor o‘zgarishlar sport jurnalistlaridan nafaqat mazmun, balki format jihatidan ham yangilanishni talab etmoqda. Qisqa videolar, infografikalar, ijtimoiy tarmoqlar orqali tezkor xabar tarqatish, real vaqt rejimidagi yangilanishlar – bularning barchasi zamonaviy sport

⁷⁴ Hutchins B., Rowe D. Sport Beyond Television: The Internet, Digital Media and the Rise of Networked Media Sport. – London ; New York : Routledge, 2012.

⁷⁵ Hutchins B., Rowe D. Sport Beyond Television: The Internet, Digital Media and the Rise of Networked Media Sport. – London ; New York : Routledge, 2012.

⁷⁶ English, P. A. Sports Journalism // Oxford Research Encyclopedia of Communication. – Oxford : Oxford University Press, 2018.



jurnalistikasining ajralmas qismiga aylandi. Natijada “digital first” tamoyili shakllanib, axborotni avvalo raqamli platformalarda e’lon qilish ustuvor yo’nalishga aylandi.⁷⁷

Xulosa. Globallashuv va raqamli texnologiyalar taraqqiyoti sport jurnalistikasini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. Internet infratuzilmasining kengayishi, mobil qurilmalar va ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi natijasida sport axboroti ishlab chiqarish va tarqatish jarayoni tubdan o’zgardi. Endilikda sport jurnalistikasi an’anaviy bosma va teleformatdan farqli ravishda tezkorlik, interaktivlik, multimediyaviylik hamda konvergentlik tamoyillari asosida faoliyat yuritmoqda. O‘zbekistonda sportga ixtisoslashgan onlayn platformalar, jumladan, Champion.asia va Sports.uz kabi nashrlar milliy sport axborot makonining muhim subyektlariga aylandi. Ular nafaqat tezkor yangiliklar, balki tahliliy va ekspertlik materiallari orqali auditoriyaning axborot ehtiyojini qondirib, sport mediasining professional darajasini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, davlat miqyosida qabul qilingan strategik hujjatlar sportni ommalashtirish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etishda raqamli platformalarning rolini kuchaytirmoqda. Tijoratlashuv va reklama omili sport internet nashrlarining faoliyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Auditoriya sonini oshirish uchun kurashish, sarlavhalarni jozibador qilish kabi jarayonlar mazmun sifatiga ham ta’sir qilishi mumkin. Matn, foto, video, audio va vizual statistikaning uyg‘unligi materialning ta’sirchanligini oshiradi. Ayniqsa futbol, boks va olimpiya sport turlari bo‘yicha analitik materiallar, sharhlar va ekspert fikrlariga talab kuchaymoqda. Natijada sport jurnalisti nafaqat axborot yetkazuvchi, balki tahlilchi va sharhlovchi sifatida ham faoliyat yuritmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boborajabov E. O‘zbekistonda sport saytlarining paydo bo‘lishi va rivojlanish tendensiyalari : monografiya. – Toshkent : Grand Kondor Print, 2024.
2. Boborajabov E. O‘zbekiston media maydonida sport saytlarining rivojlanish tendensiyalari // Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar: Xalqaro ilmiy - amaliy konferensiya materiallari. – Vol. 1. – № 01 (2023). – B. 358.
3. English, P. A. Sports Journalism // Oxford Research Encyclopedia of Communication. – Oxford : Oxford University Press, 2018.
4. Hutchins B., Rowe D. Sport Beyond Television: The Internet, Digital Media and the Rise of Networked Media Sport. – London ; New York : Routledge, 2012.
5. Perreault G., Bell T. Towards a Digital Sports Journalism: Field Theory, Changing Boundaries and Evolving Technologies // Journal of Sports Media. – 2020. – Vol. 15, № 1. – P. 45–68.

⁷⁷ Perreault G., Bell T. Towards a Digital Sports Journalism: Field Theory, Changing Boundaries and Evolving Technologies // Journal of Sports Media. – 2020. – Vol. 15, № 1. – P. 45–68.

